

---

# KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASHISH – KUNNING DOLZARB MAVZUSI



## Korruptsiyaga qarshi kurashish - kunning dolzarb mavzusi

Korruptsiya illat. Respublikamizda ushbu illatga qarshi kurashish bo'yicha alohida tizim yaratilgan va bu yo'nalishda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Tuman tibbiyot birlashmasida tashkil etilgan ochiq muloqot aynan ushbu dolzarb masalaga bag'ishlandi. Tuman adliya bo'limi tomonidan tashkil etilgan mazkur tadbirda tibbiyot birlashmasi xodimlari ishtirok etdi.

Tadbirda ishtirok etgan tuman adliya bo'limi boshlig'i Bunyodjon Enazarov so'zga chiqib, Respublikamizda korruptsiyaga qarshi kurash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, ushbu illatga qarshi kurashning qonuniy va huquqiy asoslari haqida gapirib, korruptsiyaga qarshi kurashish barchaning asosiy burchi ekanligini ta'kidladi. Xususan, tibbiyot muassasalarida sog'lom muhitni shakllantirish va ushbu tizimni korruptsiyadan xoli hududga aylantirishga doir huquqiy tavsiyalar berildi.

## So'x tumani hokimligi Axborot xizmati



### [Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-06-06 15:11:23